

## INFORMATIKA FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI HAMDA ZAMONAVIY YO'LLARI

*Oqdaryo tuman 2-son kasb-hunar maktabi Informatika va axborot texnologiyalari  
Fayziyeva Mavjuda Turg'unbay qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Informatika fanini o'qitishning ahamiyati hamda zamonaviy yo'llari to`g`risida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Informatika fani, Axborot texnologiyalari, dasturiy vositalar, didaktik imkoniyatlar, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Yangi sharoitlardan kelib chiqib, «Ta'lim to`g`risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021 - yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzlusizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

Informatika fanini o'qitish qo'yidagi maqsadni ko'zda tutadi:

- bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'sib kelayotgan avlodning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

«Informatika o'qitish metodikasi» fani bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi zarur:

- informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;
- informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi roli;
- informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi yangi axborot texnologiyasini, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarni chuqur o'rgangan, shuningdek, jamiyatni, ta'limni axborotlashtirilayotgan sharoitda ishslash uslublarini egallagan bo'lishi lozim.

Informatika o'quv predmeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzbek bog'liq. SHuning uchun «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani birinchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O'zining xulosalarida u ta'lim va tarbiyaning umumiyligi tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, ushbu tamoyillar pedagogika va didaktika tomonidan ishlab

chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul kilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi. Ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri b’lgan informatikaning fan sifatida o’ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o’rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda «Informatika» fanini o‘qitishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o’quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;
- o’quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o’zlashtirib olishlarini ta’minlash;
- o’quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko’rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini oolib berish;
- komp’yuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga yangi bo’g’in, o’rta-maxsus va kasb-hunar ta’limining kiritilishi bilan, informatika o’qituvchilari uchun «Informatika o‘qitish metodikasi» fanini yaratish dolzarb muammolardan biri bo’lib qoldi. O’quvchilarni bugungi va kelajak kasbi bo`lgan ITni mukammal egallash ular uchun qanchalik zarur ekanligini tushuntirish buning yechimi bo`ladi deb o`layman.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.A.Abduqodirov, Q.M.Karimov, I.A.YULDOSHEV. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. -T.: “Fan va texnologiya”, 2015. -184 bet.
2. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. -T.: “Tafakkur qanoti”, 2012. -134 bet.
3. B.X. Xodjaev. Innovatsion ta’lim texnologiyalari modulidan ma’ruza matnlari.-T.:2015 23. R.Ishmuhamedov., M.YULDASHEV. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakuliteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.